*Namangan Viloyati statistika boshqarmasi*

# Korxonalar va tashkilotlar

*(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)*

**2018 yil 1 yanvar holatiga**

**RAQAMLAR:**

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **6,4 foizga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarninig ulushi **1,1 f.p. kamaydi**
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar **1.5 barobarga ko'proq**

2017 yil yakuni bo'yicha Namangan viloyatida 2,5 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,2 foizga ko'pdir.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,4 foizga ko'paygan hamda ularning soni 1758 mingtani tashkil

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 1,1 foiz (2,0 ming birlik) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 19952 mingtani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Namangan shahrida (40,7 foiz), Chust (7,8 foiz), Namangan tumani (7,1 foiz) va To'raqorg'on (5,9 foiz) tumanlarida kuzatilmo-

**Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi (birlikda)** (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)



# Korxonalar va tashkilotlar

**Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va fao'liyatsizlarning ulushi,** foizda




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-28,4 f.p), axborot va aloqada (-2,5 f.p), kamayganligi, buning natijasida sanoatda (+19,4 f.p.), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+9,9 f.p.), qurulishda (+2,3 f.p.),savdoda (+3,8 f.p.), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda(+8,8 f.p.), shuningdek tashish va saqlashda (+11,1 f.p) faoliyat turlarida

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 94,8 foizni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulishi 5,2 foizni tashkil etganligini korsatmoqda va bu ko'rsatkich yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 2,2 f.p. kamaygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari boyicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 24,3 foiz savdoda, 19,5 foiz sanoatda, 7,3 foiz qurulishda, 7,3 foiz qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 4,0 foiz yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,5 foiz tashish va saqlash, 1,5 foiz axborot va aloqa, 2,2 foiz sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 30,4 foiz boshqa faoliyat turlari hissasiga to'gri keladi.

**Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi**
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari) foizda



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1yanvar holatiga Namangan viloyatida jami 103 ta Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar mavjud bo'lib, ulardan 71 tasi qo'shma korxonalar

**Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning ulushi,** foizda




**Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni va ulushi**

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Namangan shahar 45 ta (43.8 foizi), Uychi tumani 9 ta (8,7 foiz) va Namangan tumani 7 ta (6,8 foiz), Pop tumani 7 ta (6,8 foiz), Chust tumani 7 ta (6,8 foiz), Kosonsoy tumani 6 ta (5,8 foiz), Chortoq tumani 6 ta (5,8 foiz) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Mingbuloq tumanida 1 ta (1,0 foiz), Norin tumani 3 ta (2,9 foiz), Uchqo'rg'on tumani 3 ta (2,9 foiz) va Yangiq'org'on tumani 3 ta (2,9 foiz) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

| | *Soni* | *Ulushi, %* |
|---|---|---|
| Namangan viloyati | 103 | 100,0 |
| Namangan shahar | 45 | 43,8 |
| *tumanlar:* | | |
| Mingbuloq | 1 | 1,0 |
| Kosonsoy | 6 | 5,8 |
| Namangan tumani | 7 | 6,8 |
| Norin | 3 | 2,9 |
| Pop | 7 | 6,8 |
| To'raqorg'on | 6 | 5,8 |
| Uychi | 9 | 8,7 |
| Uchqo'rg'on | 3 | 2,9 |
| Chortoq | 6 | 5,8 |
| Chust | 7 | 6,8 |
| Yangiq'org'on | 3 | 2,9 |

# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2017 yil yanvar-dekabr oylari yakuni bo'yicha Namangan viloyatida jami 17 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tashkil etilgan bo'lib, shulardan asosiy qismi Namangan shahrida 7 ta, Kosonsoy tumanida 2 ta va Pop tumanida 3 ta, To'raqo'rg'on tumanida 2 ta tashkil etilgan. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar eng kam tashkil etgan tumanlar qatoriga Uychi tumani (1 ta), Uchqo'rg'on tumani (1 ta) hamda Yangiqo'rg'on tuman (1

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni hududlar kesimidagi soni, birlikda**

| Namangan viloyati | Namangan shahar | Kosonsoy tumani | Pop tu-mani | To'raqo'rg'on tumani | Uychi mani | Uchqo'rf'on tumani | Yangiqo'r-g'on tumani |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 17 | 7 | 2 | 3 | 2 | 1 | 1 | 1 |

**Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, foizda**




Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 yanvar holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 77 ta (74,8 foizni), savdoda 8 ta (7,8 foizni), boshqa turlarida esa 9 ta (8,7 foizni) tashkil qigan, eng kamlari esa Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 4 ta (3,9 foizni), Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 2 ta (1,9 foizni), Tashish va saqlashda 1 ta (1,0 foizni), Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 2 ta (1,9 foizni) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Sanoat va savdo faoliyat turiga to'gri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda Axborot va aloqa faoliyat turlariga to'gri keladi.

## Xorijiy kapital  ishtirokidagi korxonalar soni

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital  ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha ko’radigan bo’lsak, demak asosan sanoatda 13 ta, savdoda 3 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 1 ta  xorijiy kapital  ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital  ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha soni,** birlikda




**Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital  ishtirokidagi korxonalarning hamkor davlatlar ishtirokidagi ulushi**

Namangan viloyatida jami faoliyat ko’rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi 103 ta korxonalarning 69,9 foizi (72 ta) uzoq xorijiy davlatlar hissasiga, 30,1 foizi (31 ta) esa Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligi (keying o’rinlarda MDH davlatlari) davlatlari hissasiga to’g'ri keladi.

Jumladan, Namangan viloyati ichida Rossiya Federatsiya kapitali ishtirokida faoliyat yuritayotgan xorijiy korxonalar 23 tani, Namangan shaxri 10 tani, Popda 3 tani, Chustda 3 tani, Chortoqda 2 tani, To’raqorg’on, Norin, Yangiqo’rg’on, Kosonsoy va Namangan tumanlarida 1 tadanni tashkil etadi.

# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning MDH davlatlari kesimidagi soni,** birlikda




Uzoq davlatlar kapitali ishtirokidagi 109 ta xorijiy korxonalarning 23 tasi Xitoy Xalq Respublikasi, 23 tasi Rossiya Federatsiyasi, 12 tasi Turkiya Respublikasi, 8 tasi Janubiy Koreya Respublikasi, 5 tasi Buyuk Britaniya va SHimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi tasi Afg`oniston Islom Respublikasi va 38 tasi boshqa davlatlar hissasiga to'g'ri

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning uzoq davlatlar kesimidagi soni,** birlikda



## Kichik korxona va mikrofirmalar soni

2018 yil 1 yanvar holatiga Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni 15,9 ming ortiqni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 yanvar holatiga qaraganda 1,1 foizga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining asosiy qismi yani 7007 tasi (43,9 foizi) Namangan shahriga, 1250 tasi (7,8 foizi) Chust, 1203 tasi (7,5 foizi) Namangan tumani hamda 893 tasi (5,6 foizi) To'raqorg'on tumanlari hissalariga to'gri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining hududlar kesimidagi ulushi,** foizda



## Kichik korxona va mikrofirmalar soni

2017 yil yakuni bilan 2,3 mingdan ortiq Kichik tadbirkorlik sub'ektkari yangi tashkil etilgan. Bu esa 2016 yilga qaraganda 1,2 foizga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan tadbirkorlik sub'ektlari Namangan shahrida (999 ta), Uychi (168 ta), Namangan tumanida (163 ta) va To'raqorg'on tumanida (149 ta) tashkil etilgan. Eng kam Kosonsoy (97 ta) hamda Uchqorg'on (95 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining hududlar kesimidagi soni,** birlikda



## Kichik korxona va mikrofirmalar soni

Faoliyat yuritayotgan 15,9 mingdan ortiq kichik tadbirkorlik sub’ektlarini toifalarga bo’lganda kichik korxonalar 6,0 foizni (952 ta), mikrofirmalar esa 94,0 foizni (14997 mingtani) tashkil qilgan.

**Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha tarkibi,** foizda



## Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni 2018 yilning 1 yanvar holatiga 255 tani tashkil etib, ulardan 250 tasi yoki 98,0 foizi faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning umumiy soni **57,4** foizga hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni **58,2** foizga oshganligini ta'kidlash lozim.

**Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi,** birlikda



## Oilaviy korxonalar soni

Jami 250 ta faoliyat ko'satayotgan oilaviy korxonalarning asosiy qismi yani, 118 tasi (84,4 foizi) Namangan shaxriga, 25 tasi (38,9 foizi) Chust, 23 tasi (53,3 foizi) Kosonsoy, 14 tasi (18,0 foizi) Uychi, 14 tasi (18,0 foizi) Chortoq, 13 tasi (18,2 foizi) Uchqo'rg'on, 12 tasi (71,4 foizi) Yangiq'org'on tumanlari hissalariga tog'ri keladi. Eng kam faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar 20 tasidan (1,0 foizi) Migbuloq, 5 tasi (-37,5 foizi) Namangan tumani, 7 tasi (16,7 foizi) Norin hamda 6 tasi (2,0 foizi) Pop tumanlariga to`g`ri keladi. Bu esa ushbu hududlarda oilaviy korxonalar bilan ishlash yahshi yo'lga qoyilmaganligini ko'rsatib turibdi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimidagi ulushi,** foizda



# Oilaviy korxonalar soni

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarning Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 76,6 foizi yoki 127 tasi sanoat, 60,9 foizi yoki 37 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 26,1 foizi yoki 29 tasi savdo, 12,5 foizi yoki 27 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, -25.0 foizi yoki 3 tasi axborot va aloqa, 2 tasi qurilish, yoki 3 tasi tashish va saqlash hamda 12,5 foizi yoki 18 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

**Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,** foizda



## Oilaviy korxonalar soni

2017 yilda `98 ta Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, demak asosan sanoatda 58 ta, yashash va ovqatlanish xizmatlarida 12 ta, savdoda va qishloq va o'rmon va baliq xo'jaligida 10 tadan, boshqa turlarda 8 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan.

**Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni,** birlikda





**Namangan viloyat statistika boshqarmasi**
**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**
Nashr uchun mas'ul:
**A.Botirov** *(0369) 227-84-96*


**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida tayyorlangan**